

O'QUVCHILARNING BILIMINI NAZORAT QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHDA ACTIVEPRESENTER DASTURIDAN FOYDALANIB TEST TUZISH USULLARI

Rasulbek Davletov Marimboyevich

Xorazm VXTXQTMOHM

“Aniq fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Animatsiyalar, interaktiv testlar, viktorinalar yaratish va ActivePresenter-dan foydalanish maqsadi*

Kalit so'zlar: *AKT, ActivePresenter, test, Adaptiv dizayn, HTML5 texnologiyasi*

Kompyuter texnologiyasining rivojlanib borishi va insonning ish faoliyatida keng qo'llanilishi ta'sirida ma'lum bir yo'nalishidagi dasturlarga bo'lgan talab yanada ortdi. Ma'lumki dasturlarning ishlab chiqilishi va rivojlanishi qo'llaniladigan sohadagi maqsadlardan kelib chiqadi. Hozirgi kunda Word, Excel, Power Point dasturlari fan o'qituvchilarining kundalik yordamchisiga aylanib ulgurdi. Bugungi kun o'qituvchilari faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan ta'bir joiz bo'lsa, har bir dars uchun o'zi ham yangi dasturlarni o'rganishi kerak. Chunki zamon ilgarilab borayotgan bugungi davr bolasini 45 daqiqalik dars mobaynida diqqatni faollashtirib bilim berish-murakkab jarayon. Shuning uchun bolalarga turli ko'rgazmalar va o'yinlar orqali ta'lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Active Presenter dasturidan foydalanish ham darslarda samaradorlikka erishiladi. Dasturda animatsiyalar yaratishga, interfaol testlar, viktorinalar tuzishga imkon beradi. ActivePresenter shuningdek, rivojlangan video yozish va tahrirlash xususiyatlariga ega bo'lgan mukammal elektron ta'lim vositasi bo'lib, kompyuterda sodir bo'layotgan keng auditoriya uchun uzatish qobiliyatiga ega. ActivePresenter bilan siz turli xil elektron ta'lim materiallarini yaratishingiz mumkin, jumladan, namoyish videolari, dasturiy ta'minot simulyatsiyasi, tekshiruv so'rovlari, elektron ta'lim o'yinlari. Adaptiv dizayn, HTML5 texnologiyasi va tomoshabinlar bilan o'zaro ta'sir qilish funksiyalari bilan turli xil senariylarni yaratish qobiliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ActivePresenter har qanday elektron ta'lim kurslarini yaratish uchun eng yaxshi vositadir. Yangi dasturlardan foydalanib, yangi metodik masalalarni hal etishi, fanga mansub bilimlarini chuqurlashtirishi, o'z kasbiy mahoratini oshirishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi o'quv materialining ko'rgazmaliligini, qiziqarliligini va samarasini oshirishi mumkin. Testlar uchun sozlamalarda bitta testga qayta-qayta bir necha marta javob berish va o'zgartirish imkoniyati mavjud. Har bir testga muayyan ball belgilash mumkin. Shuningdek, qisman to'g'ri javoblarni berish, savol va javoblarni aralashtirish, vaqt belgilash, har bir javobning natijasini ko'rsatib borish yoki bir yo'la test yakunlanganda natijani ko'rsatish, xatolarni tahlil qilish ham mumkin. Bu imkoniyatlardan foydalanib nazorat testlarini o'rgatuvchi testlarga aylantirish mumkin. Bu esa tezkor va samarali o'qitish usullaridan biri hisoblanadi. Testlarning savollari va javoblariga turli rasm, sxema va formulalarni birlashtirish mumkin.

Har bir shakl muayyan didaktik jihatlarga ega. O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini sinashda test usuli nazorati ham muhim omillardan biridir. Test topshiriqlarining bajarilish darajasi o'quvchilarning o'quv materiallarini ruhiy jihatdan qay yo'sinda ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Test topshiriqlari tahlili shuni ma'lum qiladi: eslab qolish, so'ngra ifodalash, keyin reproduktiv axborotga o'tish, undan so'ng produktiv axborotga, fikrlashga yo'naltirilganligi o'quvchilarning bilimni nazorat qilishni takomillashtiradi, ularning bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi. O'zlashtirish saviyasi qanchalik yuqori bo'lsa, fikrlash operatsiyalar soni shunchalik ko'payadi. Yaxshi tuzilgan test topshirigi o'quvchidan o'ylab, butun olgan bilimlarini ishga solgan holda javob berishiga undashi lozim. Test topshiriqlari o'zlashtiruvchi uchun murakkab bo'lmay, balki o'z bilimni namoyon etishga imkoniyat berishi shart.

ActivePresenter sizga to'qqiz xil savollarni kiritish imkonini beradi:

- | | | |
|-----------------------|-----------------------|----------------------------------|
| 1.To'g'ri / noto'g'ri | 2.Javobni tanlang | 3.Ko'p javoblar |
| 4.Insho | 5.Maydonni to'ldiring | 6.Bir nechta maydonni to'ldiring |
| 7.tartib | 8.Surish va tushirish | 9.Shkala |

1-shakl. «To'g'ri/noto'g'ri» shaklidagi yopiq test — bunda berilgan savolga 2 xil javob qaytarish mumkin («to'g'ri/noto'g'ri», «ha/yo'q» va h.k.). Bu testda o'quvchining axborotni bilishi sinaladi.

2-shakl. ActivePresenter -dagi odatiy savollar slaydi to'rt qismdan iborat. Ikkita asosiy qism - javoblar guruhi va slaydning nomi. Qolgan ikkitasi slaydlar tartibiga joylashtirilgan. Bu testda o'quvchidan to'g'ri javobni noto'g'ri javoblardan farqlash talab etiladi.

3-shakl. Bir necha to'g'ri javobli yopiq test. Bu test oldingisidan sal murakkabroq bo'lib, o'quvchidan to'g'ri javoblarni va ularning sonini aniq bilish talab etiladi.

4-shakl. Matn kiritiladigan insho test. Javobni satrga kiritish yo'li bilan javob beriladi. Bu test oldingilaridan murakkabroq bo'lib, o'quvchidan aniq javobni bilishi va uni to'g'ri kiritishi talab etiladi.

5-shakl.. O'quvchidan barcha katakchalarni to'ldirish talab etiladi Bu testda bitta savol ichida bir nechta muammo beriladi. Biroq, o'quvchi oson javoblarni topsa, murakkab javoblar o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Bu vaziyat o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

6-shakl. Tartibga keltirish testi. Bu testda javoblar berilgan bo'lib, ularni muayyan ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladi. Bu testda ham navigatsiya elementi qo'llanilganligi sababli u boshqalariga qaraganda qiziqarliroqdir. Bu testda ham mantiqiy fikrlash talab etiladi, biroq moslik testidagi kabi javoblar o'z-o'zidan ma'lum bo'lib qolmaydi. Shu sababli bu test boshqalaridan ancha murakkab va qiziqarli hisoblanadi.

7-shakl. Son kiritiladigan ochiq test. Ochiq testning (4-turdagi testning) xususiy shakli bo'lib, talabadan aniq javobni bilishi va satrga sonni yozish talab etiladi. Biroq, bu testning o'ziga xosligi shundaki, unga javobni aniq, taxminiy yoki, ma'lum bir oraliqda berish mumkin. Bu test tuzuvchiga savolni to'g'ri shakllantirishni, talabadan esa savoldagi ikkinchi yashirin ma'noni anglagan holda to'g'ri javob berishni talab etadi.

8-shakl. Bo'sh joylarga matn kiritiladigan ochiq test. Bu test talabning yozma nutqini (leksika, grammatika, orfografiya) to'g'ri shakllantiradi.

9-shakl. Bo'sh joylarga matn kiritiladigan yopiq test. Ushbu test 8-turdagi testga nisbatan osonroq, chunki, unda javoblar mavjud bo'ladi, o'quvchilar faqat mantiqiy fikrlash va javoblarni bir-biriga qiyoslab ro'yxatdan to'g'risini tanlash talab etiladi.

Zamonaviy pedagog yoshlarga yaqinroq bo'lishi, ularning e'tiborini tortishi uchun ActivePresenter dasturida tuziladigan interfaol testlarni tuzishni o'rganishi maqsadga muvofiq.

-o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi;

-o'qituvchining o'z kasbiga ijodiy yondashuvi uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi;

-o'qituvchining ta'lim olishi masofaviy malaka oshirishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyatini ta'kidlagan holda ularning foydalanish me'yorlarini unutmashimiz zarur. Shu sababli ham bugungi kun o'qituvchisi tinimsiz o'z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg'or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan shaxs sifatida o'z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo'lishi davr talabidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A. Sattorov "Informatika va axborot texnologiyalari" . T.: "O'zbekiston".2002
- 2.<https://talk.atomisystems.com/c/activepresenter>
3. <https://atomisystems.com>